

AHOLI ORASIDA EKOLOGIK ONG VA MADANIYATNI OSHIRISH.

Nilufar Ibragimova

Andijon Davlat Universiteti

Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish

ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola odamla rorasida ekologik madaniyat atrof- muhit to'g'risidagi ongni uyg'otishga qaratilgan ta'lim jarayoni bilan bog'liq . Ushbu jarayon hozirgi va kechagi avlodlar uchun atrof-muhit barqarorligi va sifatini kafolatlab inson va tabiat muhit o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarishini rag'batlantirishga harakat qiladi . Harakat sifatida ekologik madaniyat atrof-muhitni o'zgarish uchun inson kuchining maxsuli sifatida tabiatning aniq nomutanisibligi bilan o'zini oqlaydi . Ushbu modifikatsiyalar natijasida tirik turlar ko'pincha qaytarib bo'lmaydigan , bo'lishi mumkin bolgan havflarga duch kelishadi .

Kalit so'zlar : Ekologik madaniyat , ekologik ta'lim, ekologik ong , ekologik bilim , suvning ifloslanishi , cho'llanish , tuproq unumdorligining pasayishi , chiqindilar, ekologik idoraviylik

Абстрактный. Данная статья посвящена образовательному процессу, направленному на повышение экологического сознания межличностной экологической культуры. Этот процесс пытается стимулировать изменение отношений между человеком и природной средой, гарантируя стабильность и качество окружающей среды для настоящего и будущих поколений. Экологическая культура как движение оправдывается очевидной неадекватностью природы как продукта человеческих усилий по изменению окружающей среды. В результате этих модификаций живые виды часто сталкиваются с необратимыми потенциальными угрозами.

Ключевые слова: Экологическая культура, экологическое образование, экологическое сознание, экологические знания, загрязнение воды, опустынивание, снижение плодородия почв, отходы, экологическая ведомственность.

Abstract . This article is related to the educational process aimed at raising environmental awareness of interpersonal ecological culture. This process tries to stimulate the change of relations between man and the natural environment, guaranteeing the stability and quality of the environment for the present and future generations. As a movement, ecological culture is justified by the apparent inadequacy of nature as a product of human effort to change the environment. As a result of these modifications, living species often face irreversible, potential threats.



Key words: Ecological culture, ecological education, ecological consciousness, ecological knowledge, water pollution, desertification, decrease of soil fertility, waste, ecological departmentalism.

KIRISH.

Biz insoniyat tabiatdan nooqilona foydalanganimiz sababli bugunga kelib tabiatga ham bizga o'z aks tasirini sezilarli darajada namoyon qila boshladi . Endi ekologiya sohasi tabiat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni tiklash va barqaror rivojlanish asoslarini qo'llash yo'liga o'tdi . Ekologiya bilan birgalikda ekologik ong ,ekologik madaniyat atamalari ham hayotimizga kirib kela boshladi .

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL .

Kun sayin insoniyatning tabiatga nisbatan tahdidlari ortib bormoqda . Bunga esa bot - bot takrorlanayotgan suvning ifloslanishi, cho'llanish, tuproq unumdorligining pasayishi kabi ekologik hurujlarning ayni zamirida ekologik bilimlarning yoqligi , ekologik madaniyatning pastligidan dalolat beradi . Yo'l yoqasiga tashlanayotgan va suv havzalariga oqizilayotgan chiqindilar , kimyoviy zararli moddalar suvning ifloslanishiga olib kelmoqda , natijada u o'sha suv havzasining muhiti yomonlashmoqda flora va fauna dunyosiga zarar ko'rsatmoqda turli kasalliklar kelib chiqmoqda . Yerga tashlangan chiqindilar esa tuproq tarkibiga ta'sir ko'rsatmoqda yoki aksincha tarkibini butunlay o'gartirib yuboradi , natijada o'sha yerda o'sgan o'simliklar ham zaharga aylanmoqda . Natijada , istemol qiluvchi hayvonot dunyosi ham zarar kormoqda . Bunga yaqqol misol yerga tashlangan hojatxona qog'ozi 2 kundan 4 kungacha muddatda oz hususiyatini yoqotadi , banan po'stlog'i esa 3 - 4 hafta , olma po'chog'i 2 oy , boshqa oziq - ovqat chiqindilar 10 kundan 1 oygacha , tabiiy sochiqlar 2 - 3 yilda , sigaret qoldiqlari 2 - 5 yilda , konserva idishlar 10 yilda , plastik idishlar 100 yilgacha , politilen paketlar 200 yil , shisha idishlar 100 yilda chirib yo'q bo'lib ketadi . Bu vaqt oralig'ida esa atrofga o'z tasirini ko'rsatib turadi . Bularning tag zamirida ekologik madaniyatning yoqligi yotadi . Ekologik bilim aslida bu tabiat haqidagi bilim ong idrok , sovodxonlik , intellektual aalohiyat va uni amalga qo'llay bilish faoliyati , atrof muhitga nisbatan faoliyatining yuksak korsatkichi ongli va ma'suliyatli yondashuvdir , ekologik bilimlarning tayanch fazikatlari : 1. Axloqiy ekologik Onglilik shaxsning muhim madaniyatlilik sifati bo'lib uning atrof muhitni hissiy bilish jarayoni atrof - muhitfagi obyektlar va hodisalarni sezish , idrok etishi , tasavvur qilish , tabiat muhifazasi bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish .

2. Ekologik ma'suliyatlilik shaxsda munosabat va ma'sulikni tarbiyalashda namoyon bo'ladi . Bunday munosabat shaxsning bilib bilmay tabiatga ko'rsatgab salbiy tasirini anglash va bunday ta'sirnu bartaraf etish istagi natijasidagina shaklanadi .



3. Ekologik idoraviylik shaxsning o'zi va o'zgarishlarning atrof - muhitdagi hatti - harakatlarini baholash va nazorat qilishni , tabiatni asrab - avaylashga intilishi kabilar kiradi .

Xulosa va takliflar :

Xulosa qilib aytadigon bolsak aholi orasuda ekologik madaniyatning juda past darajada shakllanganligi ekologik bilimning kamligi natijasida suv ifloslanishi va tanqisligi , cho'llanish , tuproq unumdorligining pasayishi kabi bir qator muammolar yechimini tezroq bartaraf etish lozimligi buning uchun bularni aholi onggiga singdirish va turmush tarzining bir bo'lagiga aylantish uchun bir qator tizimli faoliyatni taminlash Maqsadida quyidagi takliflarni bermoqchimiz .

Hususan , jamoat vakillari , mutadsaddilar , partiya faollari birgalikda aholi orasida va aholi yashash punkitlarida targ'ibot va tashviqot ishlarini , tushuntirish va amalda qo'llashni targ'ib qiluvchi tadbirlarni tashkil etish ,

--- aholi gavjum joylarda , korxonalar , tashkilot , muassasalarda , bekatlarda ekologik madaniyatni targ'ib qiluvchi bannerlar tashkil etish ,

--- ko'p qavatli uylar yonida chiqindi qutilarini koproq o'rnatish ,

--- suv havzalari va atroflarida chiqindi tashlamaslik to'g'risida taqiq belgilar , ogohlantiruvchi yorliqlar ilish ,

--- Ekologik bilimlarni avvalo maktabgacha ta'lim sohasidan boshlash jumladan , O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning 4 - moddasida ham aynan ta'lim maskanlarixiga ekologiya darslarini yo'lga qo'yish haqida to'xtalib o'tiladi ,

--- umum ta'lim maktablarida ekologik madaniyat boyicha alohida dars soatlari tashkil etish ,

--- horijiy va rivojlangan davlatlar tahribalari bilan tanishib chiqish oliy talimda o'qiyotgan mutahassislar uchun qo'llanma sifatida berish ,

1972 - yilda Atrof muhit bo'yicha stokgolm konfirensiyasida ekologik ta'limning xalqaro dasturlarini yaratish bo'yicha tavsiyanoma qabul qilingandi chunki , bungi kunda yer kurrasida ekologik ta'lim , ekologik madaniyat , atrof - muhit muhofazasi sohasida kadrlar tayyorlashning zaminidir .

--- yetishib chiqayotgan kadrlar orasida ekolog - injiner, ekolog - arxiyektor , ekolog - Iqtisodchi kabi mutaxassislar sonini oshirishga alohida urg'u berish lozim .

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.To'xtaev A. Ekologiya – Toshkent:1988



2.Qodirova Malikaxon Qaxramonovna, Nasimov, Doston Sobir O'g'li MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IDROKINI IJODIY O'YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH // ORIENSS2022

3. Majidov, Jasur Baxtiyorovich (2022). SOTSIAL INTELLEKT VA UNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI. Oriental maissance:innovatie:educational,natural and social sciences,2 (2),608-613.

4.Shodimetov Y. Ijtimoiy ekologiyaga kirish.-Toshkent:O'qituvchi,1996

5. Do'stxo'djayeva R.I. Ekologiya . Maruzalar matni-Toshkent : TFI,2006.

Internet saytlari.

1. <https://lex.uz>

2. <https://yuz.uz>

3. <https://uzpfiti.uz>

4. <https://piima.uz>

5. <https://t.me>

